

## O'RUXUN BITIGIDAGI «SIR» ETNONIMINING LINGVOMADANIY TADQIQI

**Rustamov Mirjalol Azamat o'g'li**  
*Samarqand davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'rxun bitigidagi «sir» etnonimining lingvomadaniy tadqiqi, Tarixiy taraqqiyot davomida ko'plab toponimlarning etnonimlar bilan aloqadorligi, Turk hoqonligi sharoitidagi «sirlar» etnik transformasiyalashuv natijasida qipchoq etnonimi ostida o'z faoliyatlarini davom ettirishligi haqida ma'lumotlar berilgan

**Kalit so'zlar:** Etnik transformasiya, sovet ideologiyasi, O'rxun-Yenisey, seyanto, sirlar tele, ijtimoiy-madaniy.

**Annotation:** This article provides information on the linguistic and cultural study of the ethnonym "secret" in the Orkhun inscription, the connection of many toponyms with ethnonyms during historical development, and the fact that "secrets" in the conditions of the Turkic khanate continue their activities under the Kypchak ethnonym as a result of ethnic transformation.

**Key words:** Ethnic transformation, Soviet ideology, Orkhun-Yenisei, seyanto, secrets of television, socio-cultural.

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения о лингвокультурологическом изучении этнонима «тайна» в орхунской надписи, связи многих топонимов с этнонимами в ходе исторического развития, о том, что «тайны» в условиях тюркского ханства продолжают свое существование. Деятельности под этнонимом кыпчак в результате этнической трансформации.

**Ключевые слова:** Этническая трансформация, советская идеология, Орхуно-Енисей, сейято, тайны телевидения, социокультурный.

### KIRISH

Bugungi ijtimoiy voqelik tarixiy qadriyatlarga haqqoniy munosabatni taqozo etadi. Zero, to'g'ri yondashuv jamiyatda tarixiy tafakkurning optimal rivoji uchun imkoniyatlar yaratishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, predmet va hodisalarlarning real atamalar bilan atalishini ta'minlaydi. Chunki, bugungi kunda ham ilmiy muomaladagi konsepsiyalarning aksariyati sobiq sovet ideologiyasi mohiyatini ifodalovchi va targ'ib etuvchi olimlar tomonidan yaratilgan bo'lib, ularning faoliyati turklarning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotdagi o'rnini inkor etishga yo'naltirilgan edi. Insoniyat sivilizasiyasining muayyan bosqichini ta'minlab kelgan Turk hoqonligi (552-744 yy.) va turkiy imperiyalar sobiq tizim ideologik targ'ibotchilari tomonidan varvarlar deb atalib, tarixiy obida, inshoot va qadriyatlarning turkiy mohiyatini inkor etishga harakat qildilar. Bu jarayon yuz yilga yaqin vaqt davom etib, bugungi kunda ham ayrim turkiy qadriyatlar etnonim, gidronim, toponim, politonim sifatida o'z munosib bahosini olgan emas. Yuqorida fikrlardan kelib chiqqan holda O'rxun

bitigida, xususan To'nyuquq bitiktoshida ifodalangan «sir» etnonimining Sirdaryo gidronimi bilan aloqadorligi, O'rxun-Yenisey toshbitiklari mohiyatini ochish va tadqiq etishda turkiy xalqlar tarixi va qadriyatlarini targ'ib etgan ma'naviy yetakchilar, ularning umuminsoniy madaniyat rivojiga qo'shgan hissalari tadqiq etiladi. Zero, bitik sirli mohiyat kasb etgan turkiy qadriyatlarning faqatgina o'ndan bir qismi bo'lib, qadriyatlarimizning o'ndan to'qqizi arxeologik yodgorliklar sifatida o'z tadqiqotchilarini kutib yotibdi. Shuningdek, Turk runologiyasi doirasida mavjud etnonimlarning tarixiy talqini hamda ularning Turk hoqonligida tutgan o'rni masalalari tarixiy-nazariy asoslarda tahlil etilib, bu borada konseptual fikrlar ilgari suriladi.

### **ADABIYOTLAR VA METADALOGIYA**

Tarixiy taraqqiyot davomida ko'plab toponimlarning etnonimlar bilan aloqadorligi kuzatiladi. Ayniqsa, bir etnos vakili yashagan yoki yashayotgan hududda joy nomlari va ushbu hududga yoki etnosga aloqador bo'lган tog', tepalik, soy, yaylov, buloq, quduq va h.k. nomlari ko'plab uchraydi. Shu bois, Sirdaryo gidronimining O'rxun bitigida (To'nyuquq bitiktoshi) uchraydigan sir etnonimi bilan bog'liqligi ham haqiqatga yaqindir. O'z fikrimizni isbotlash uchun tarixiy ma'lumotlarga murojaat etamiz.

Ma'lumki, milodning 605-yilida Sharqiy Tyan-Shanda yashagan sir qabilalari (Xitoy manbalarida Seyanto) G'arbiy Turk xoqonligiga qarshi qo'zg'olon ko'taradi, hoqonlik tarkibidan ajralib chiqib, ushbu hududni tark etishadi va hoqonning ukasi shad boshchiligida o'z davlatlarini tashkil etishga muvaffaq bo'lishadi. Yuqorida sirlar (seyanto) haqida to'xtaldik, bu etnonim turklar bilan bir qatorda O'rxun bitiktoshlarida ham uchraydi. Jumladan, To'nyuquq bitiktoshida: «Turk Bilga hoqon Turk sir xalqini, O'g'uz xalqini tarbiyat qilib turipti», - deyiladi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha: «Qipchoqlarning qadimgi turkcha nomi "sir" edi, ular VI – VIII asrlarga oid run bitiklarida ham qayd etilgan. IV-VIII asrlarga oid Xitoy manbalarida "se" etnonimi ostida uchraydi, keyinchalik "seyanto" (V asrda, sirlar yamtar yoki yanto qabilalarini yengib, ularni ham o'z tarkibiga singdirishgan). Sirlar (seyanto) keyinchalik qipchoqlar sifatida tanildilar». Bu yerda qipchoqlarni tele qabilasining bir bo'lagi sifatida qarash lozim. Tele qabilasi tarkibida o'g'uzlar va boshqa turkiy xalqlar bo'lганligini ham unutmasligimiz lozim. Ya'ni: «Qipchoqlarning ajoddlari Tele qabilalari, so'ngra VI – VIII asrlarda "seyanto" kichik guruhi bo'lган». Albatta, seyanto turklarga nisbatan kichik guruh bo'lган bo'lishi mumkin, lekin Turk hoqonligi sharoitida muayyan mavqega ega edi.

Xullas, sir qabilasi shad boshchiligida Xangayga ko'chib o'tib, O'tukanda 619-yili o'z qarorgohlarini tiklaydilar. 628 yilda tele qabilalarining sirlar va uyg'urlar boshchiligida Sharqiy Turkarning Elhoqoniga qarshi kurashi avjiga chiqadi. Hoqon O'tukanni hujumchi qabilalarga tashlab, o'zi hoqonlikning janubiy qismiga qochib ketadi. O'g'uzlarning, ya'ni turkiy qabilalarning bunday parokandaligidan foydalangan Tan (Xitoy) imperatori Tayszun Elhoqon qo'shiniga zarba berib, 630 yilda Sharqiy Turk hoqonligiga barham berishga muvaffaq bo'ladi. Yaxlit

hoqonlikning barham topganidan so'ng Xangayda sirlar va uyg'urlar orasida nizo chiqib, sirlarning g'alabasi bilan tugaydi. «Sirlarning yetakchisi Inanchu Erkin o'zini Yenchu Bilga hoqon deb e'lon qiladi». Shunday qilib Mo'g'uliston shimolida Inanchu Erkin Bilga hoqon boshchiligidagi sirlar hoqimiysi (630-646 yy.) tarix sahnasiga chiqadi. Hoqonlik Oltoydan Xinganga qadar hududni egallab, Yeniseyning yuqori havzasidan Gobigacha bo'lgan hududlarni qamrab oldi. Tola daryosining shimoliy sohiligacha hoqonlikka bo'ysunar edi. «Shimolda «seyanto» (sir-tardush) hoqoni Yenisey qirg'izlari mamlakatini ham bo'ysundirib, ularning «oliy nazorati» uchun o'z vakili – eltabarni yuborgan edi». «...hoqon o'z vassallariga eltabar unvonini berib, nazoratchi sifatida» foydalangan. Hamda «...hoqonlik tomonidan vassal voha hukmdorlariga ham «eltabarli budun» sifatida qaralgan».

Ma'muriy jihatdan yangi hoqonlik ham eski turk hoqonligi kabi g'arbiy va sharqiyan qanotlarga bo'lingan edi. 641-yilda sir Inanchu Bilga xoqon hamda vafot etgan turk hoqoni – Xitoy tomonidan qo'yilgan Elhoqon qo'shinlari orasida shiddatli janglar bo'lib o'tadi. 646-yilda sirlarga qarshi uyg'urlar boshchiligiga to'qqiz-o'g'uz qabilalari urush boshlaydi. Va ular Xitoydan yordam so'rab, birgalikda sirlarni yengishadi. 630-646-yillari tarix sahnasida faoliyat olib borgan sir hoqonligiga barham beriladi. Sirlarning o'z hokimiyatini tiklashga bo'lgan urinishlari 668-yili Xitoy tomonidan bostiriladi. Shunday qilib, sirlar o'zlarining o'n yilliklar davomida qarama-qarshi tarzda urushib kelgan o'z qondosh qabiladoshlari bilan birga Xitoya qaram bo'lib qoladi. Hamda 679-yili sirlar va turklarning boshqa qaram qabilalari Xitoy hukmronligiga qarshi bosh ko'tarishadi. Ikki yil davom etgan qurolli kurash natijasida 681-yilda ikkinchi turk hoqonligiga asos solinadi. Ushbu hoqonlik ham uyg'urlar boshchiligidagi to'qqiz-o'g'uz qabilalari ittifoqi tomonidan 687-691-yillar, 714-715-yillar va 723-724-yillardagi hujumlar natijasida susayib, 744-yili ikkinchi Turk hoqonligiga ham barham beriladi. Mag'lub sirlar Tola va O'rxun havzalaridan shimoliy Oltoy va Sharqiy Tyan-Shan tomonlarga qochib kelishadi. 712-716 yillar oralig'ida yozilgan To'nyuquq bitigining bir necha qatorida sirlar tilga olinadi. 735 yilda qo'yilgan Bilga hoqon bitiktoshida sir atamasi etnonim sifatida uchraydi. Shunday qilib, «Sirlar oxirgi marta manbalarda 735-yilda uchrab, etnonim sifatida tarix sahnasidan barham topib, boshqa nom bilan – qipchoq sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Va shu bilan sirlarning (seyanto) tarixi tugaydi». Lekin, ijtimoiy-tarixiy jarayonlarda bir etnonimning ijtimoiy leksikondan tushishi, ushbu etnik qatlarning tamoman barham bo'lishini bildirmasdan, balki tarix sahnasida boshqa etnonim bilan paydo bo'lishiga imkon yaratadi.

Ushbu harbiy-siyosiy voqealar bayoni 726-yilda bitilgan To'nyuquq bitigida turklar va sirlarni yetakchi qabilalar, tog'iz-o'g'uzlarni esa bo'ysunuvchi qabilalar sifatida o'zining ifodasini topgan.

## NATIJALAR

«Sirlar (seyanto) haqida shuni qo'shimcha qilish mumkinki, xitoy yilnomalari, xususan «Tan shu» guvohligiga ko'ra, seyanto, ya'ni sirlar tele qabilalari ichida kuchli bo'lib, ular o'z jang usullari bo'yicha qadimgi turklarga o'xshash bo'lgan.

Srostkin arxeologik madaniyatida sirlarning dafn etilish marosimlari qipchoqlarnikiga xos deb hisoblangan. Xususan, jasadlarning o‘z oti bilan ko‘milishi qadimgi turklarda, so‘ngra esa seyanto, ya’ni sirlarda, so‘ngra esa IX-XII asrlarda qipchoqlar dafn marosimlarida uchraydi». Demak, Turk hoqonligi sharoitidagi sirlar o‘rtalarda Yevroosiyo kengliklarida qipchoqlar sifatida ot surganlar.

Ya’ni, Turk hoqonligi sharoitidagi «sirlar» etnik transformasiyalashuv natijasida qipchoq etnonimi ostida o‘z faoliyatlarini davom ettiradi. «Etnotarixiy jarayonlarda etnosning shakllanib, yangicha mazmunda rivojlanishida etnik transformasiyalashuv ham muhim o‘rin tutadi. Etnik transformasiya eski etnoslarning yangi ijtimoiymadaniy sharoitlarga moslashib, o‘z madaniyati tarkibiga inoetnik xususiyatlarni singdirib, etnoijtimoiy va etnomadaniy sahnada yangi etnik birlik sifatida qaror topishidir». Bu yerda shuni ham ta’kidlash lozimki, transformasiyalashuv jarayonlarida inoetnik madaniyatni singdirishi ham mumkin, singdirmasligi ham mumkin. Qolaversa, ushbu tarifni sirlarga nisbatan qo’llaniladigan bo‘lsa, ular tarixiy shakllanishi yaxlit bo‘lgan to‘qqiz-o‘g‘uzlar (uyg‘urlar) bilan raqobatlashib yengilib, qipchoq sifatidagi etnonim raqobatchilar tomonidan sirlarga nisbatan kamsituv sifatida qo’llanilib, so‘ngra sirlarning o‘zları ham ushbu kamsituvni, ya’ni qipchoq atamasini etnonim sifatida qabul qilgan bo‘lsalarda, biroq tarixiy tafakkurda ajdodlarining sir etnonimiga mansub ekanligi ham saqlanib qolganligi ayni haqiqatdir.

Manbalarda sir-qipchoqlar turk sifatida tilga olinib, butun turkiy xalqlar istiqomat qiluvchi shimoliy-sharqi kenglik Qipchoq dalasi (Dashti Qipchoq) sifatida e’tirof etilishi tarixiy jarayonlarda obyektiv holat bo‘lib, bir-birini to‘ldirishga xizmat qiladi. Bu borada mashhur turkolog olim S.Klyashtorniy: «Turk-qipchoqlar deganda shuni tushunish mumkinki, o’sha paytda qipchoqlarning yetakchi urug‘i hukmronlik qilgan», - deydi. Albatta, dovyurak yetakchi o‘zi mansub bo‘lgan elning ijtimoiy mavqeining yuksalishiga xizmat qiladi. Bu bois ham xalqlar tarixi buyuk shaxslar tarixidan iborat.

Shunisi e’tiborga molikki, qadimgi sirlarning avlodlari bo‘lgan qipchoqlar turkiy xalqlar etnogenezida sezilarli iz qoldirganlar. N.A.Aristovning fikriga ko‘ra «Qangli va qipchoqlardan janubiy-g‘arbiy turklar, Volga tatarlari, boshqirdlar va boshqa xalqlar shakllangan, ular o‘zbeklar, sartlar va qirg‘iz-qozoqlarning shakllanishida ham muhim o‘rin tutadi. Bugungi turklarning uchdan ikki qismi qangli va qipchoqlarning avlodlaridirlar». Albatta, ushbu fikr bir oz munozarali. Uchdan bir qismi desa haqiqatga yaqinlashadi. Turklarning boshqa qabilalari, uyg‘urlar va qirg‘izlarning ham tarixiy o‘rnini inkor etmaslik lozim. Bu borada olim o‘z fikrini davom ettirib, «Kumanlarni qipchoqlar sifatida tushunish va qipchoqlarning qanglilar bilan qarindosh ekanligi hech qanday shubhaga o‘rin qoldirmaydi. XII va XIII asr boshlaridagi musulmon allomalari qangli va qipchoqlarni sinonim sifatida ishlatishtgan (Juvayniyning ta’kidlashicha Muhammad Xorazmshohning onasi qanglilardan bo‘lgan, boshqa manbalar esa uni qipchoq deyishadi»), - deydi. Demak, tarixiy sharoitlar taqozosи bilan elning yetakchisi qaysi etnik qatlamga

mansub bo'lishiga qarab, etnonimlarning yetakchilik mohiyati o'zgarib turgan.

Umuman, qadimgi turklarning tarixiy shakllanish jarayoni mushtarak bo'lib, hokimiyat masalasida ba'zan raqobatda bo'lib turishlariga qaramasdan, yaxlit turk birligiga mansub bo'lganligi ba'zan umumiy maqsad sari intilishlarini ta'minlab kelgan. «Turk Bilga hoqon Turk sir xalqini, O'g'uz xalqini tarbiyat qilib turibdi»<sup>206</sup>, - deyiladi, yozma manbalarda. Bu yerda sir va o'g'uzlar turklarga yondosh xalq sifatida tilga olinadi.

Tarixiy vogelikdan ma'lumki, keyinchalik Yevroosiyoning sharqiy-shimoliy kengliklari Qipchoq dalasi (Dashti Qipchoq) sifatida tarixiy manbalarda muhrlanib qolganligi e'tiborni tortadi. «Qipchoqlarning tarixiy vatani Qozog'istonda. Bu yerda ular o'z davlati – Qipchoq xonligiga asos solib, XI-XIII asrlarda qipchoqlarning etnik hududini shakllantirib, ushbu hudud keyinchalik qozoq xalqining etnik hududi sifatida e'tirof etilgan». Albatta, Qipchoq dalasi turkiy fenomenning asosiy komponentlaridan biri bo'lgan qozoq etnosining milliy davlatchiligi ob'yekti sifatida faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa-da, biroq qipchoq etnonimi o'nlab turkiy millatlar etnogenezida muhim o'rinn tutib kelayotganligi ma'lum. Ya'ni, «Qipchoq fenomeni faqatgina qozoq xalqining boyligi bo'lmasdan, butun Turk olami haqida gapirganimizda qipchoq omili muhim birlashtiruvchi va konsolidasiyalashtiruvchi element sifatida namoyon bo'ladi. Qipchoqlar butun turk xalqlari: qirg'izlar, qoraqalpoqlar, boshqirlar, tatarlar no'g'aylar, qumiqlar, qorachoylar, balqarlar, o'zbeklar, ozarboyjonlar, turklar, oltoylarning shakllanishida muhim rol o'ynaganlar». Va bu etnik shakllanishning ibtidosi tarixiy sir-qipchoq omili bilan bog'liqki, bu omil Qipchoq dalasi (Dashti Qipchoq) kabi, ushbu keng dashtlikka hayot bag'ishlovchi mintaqaning yirik suv manbasi (daryo)ga nisbatan ham «Qipchoqdaryo» sifatida emas, balki «Sirdaryo» sifatida qo'llanila boshlandi.

O'rta asrlarda tarixiy sirlarning avlodlari bo'lgan qipchoqlar turk davlatchiligi rivojida, shuningdek mintaqaviy etnoslararo jarayonlarda ham muhim o'rinn egallab, ularning ijtimoiy mavqeい ham yuksak bo'lgan. «Turkon xotun (1150-1233 yy.) kelib chiqishi qipchoq bo'lgan Xorazm hukmdori. Qipchoqning boyovut urug'idan...». Demak, Sirdaryo bo'yida joylashgan Boyovut tumani ham sir-qipchoq avlodlari sifatida o'z ajdodlari etnonimi bilan atalgan daryo bo'yida ekanligi yuqorida ilgari surgan gipotezamizni tasdiqlashga xizmat qiladi.

## XULOSA

Manbalarda aks etgan Sirdaryo talqiniga to'xtaladigan bo'lsak, akademik V.V.Bartold: Sirdaryoga yunonlar tomonidan berilgan nom Yaksart bo'lib, u mahalliy xalqlar tomonidan Xashart sifatida qo'llanilganligini, turklar Sirdaryoni Gavhar daryo (Jemchujnoy rekoy) – Inju o'g'uz sifatida qo'llaganliklarini aytib o'tadi. To'nyuquq bitiktoshida harbiy amaliyot ifodalangan shunday bitiklar mavjud: «Elliktacha yigitni tutdik va o'sha kechasiyoq har birini o'z xalqiga jo'natdik. U gapni eshitib, o'n o'q beklari, xalqi, hammasi bizga bosh egib keldi. Kelgan beklarni, xalqini surib, ozgina xalq qochgan edi. O'n o'q lashkarini jang qildirdim. Biz ham lashkar tortdik, uni quvdik. Inju o'g'uzni kechib Tinsi o'g'li yetadigan Bangligak tog'ini oshib o'tib, Temir

darvozagacha quvib bordik. O'sha yerdan qaytardik», - deyiladi. Bu yerda Inju o'g'uz sifatida bugungi Sirdaryo tilga olinadi. «Qadimgi turkiy til» o'quv qo'llanmasidagi To'nyuquq bitigida Inju o'g'iz atamasini Sirdaryoning o'rta oqimi, sir esa quyi oqimi sifatida izohlanadi. Shuningdek. Ulug' bitikda: «Sug'daq xalqini tuzatayin deb, Inju o'g'izni kechib, Temir qapiqqacha lashkar tortdik», - deyilib, Inju o'g'iz sifatida Sirdaryo nazarda tutiladi. Taniqli etnolog olim A.Ashirov «XIII-XIV asrlarda Sirdaryo etagidagi Jand shahri yaqinida Jo'jixonning o'g'illari va nabiralari o'rdasi «Sir o'rda» deb atalgan. Qadimgi turkiy yodgorliklarda «sir» etnonimi ham uchraydi. Ushbu dalillar «sir» degan so'zning etnonim ekanligi, asrlar davomida daryo nomiga aylanganligi va hozirga qadar yetib kelganligini ko'rsatadi», - deydi. Demak, sir atamasining etnonimdan gidronimga aylanish jarayoni uzoq davom etib, bizning fikrimizda Sir hoqonligi (630-646-yy.) sharoitida ijtimoiy tafakkurdan mustahkam o'rinnegallay boshladi. S.Qorayevning fikriga ko'ra: «XII-XIV asrlarda Sirdaryo etagida Jand shahri yaqinida Jo'jixonning o'g'illari va nabiralarining o'rdasi Sir o'rda deb atalgan. Bu faktlar daryoning qadimiy nomlaridan biri ikki ming yil davomida xalq og'zida saqlanibgina qolmasdan, ko'chmanchi o'zbek qabilalari Movarounnahrni bosib olgach, asta-sekin daryoning asosiy nomi (Sirdaryo) bo'lib qolganini ko'rsatadi». Sirdaryo gidronimi turkiy sir etnonimi bilan bog'liq ekanligini yuqoridagi fikrlar ham isbotlaydi.

Masalaga yanada teranroq yoshdashishga harakat qilgudek bo'lsak, bizga ma'lumki, Gidronim – suv havzasasi (daryo, ko'l, dengiz va.hk.)ning nomi bo'lib, lingvistik tadqiqot ob'yekti sifatida qo'llaniluvchi atama. Faqatgina lingvistik tadqiqot ob'yektigina emas, balki ilm-fanning ko'plab sohalari uchun ham tadqiqot ob'yekti bo'la oladi.

Haqiqatan ham turkiy sivilizasiya rivojini ta'minlashda suv yetakchi omillardan biri sifatida tadqiq etishga loyiq. Zero, turkiy otlarning jangovar mahorati ham suv omili bilan bog'liq. Xalqda shunday bir maqol bor: «Ot suv ichgan joydan suv ich, zero ot faqat zilol suvni topib iste'mol qiladi». Albatta, suv omili barcha davlatchiliklar tadrijiy takomil bosqichlarida muhim o'rinni egallab kelgan. Bu jihat insonlarning insoniy taraqqiyotida, qadimgi, ilk o'rta asr va o'rta asrlarda turklarning tarixiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida yetakchi o'rinni egallahiga ta'sir etgan muhim omillardan biri edi. Qipchoqlarning ajdodlari bo'lgan sirlar nomi bilan bog'liq Sirdaryoning yozma adabiyotlarda uchrashi masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, Sirdaryo gidronimi Sayhun nomi bilan arab bitigidagi arab, fors va turk tilli manbalarda, jumladan: Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Hofiz Abruning «Zubdat ut-tavorix», Hofiz Tanish Abrularning «Sharafnomai shohi», Xo'jamqulibek Balxiyning «Tarixi Qipchoqxoniy», Muhamadyor ibn arab Qatag'onning «Musaxir al-bilad», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Abulg'oziy Bahodirxonning «Shajarai-turk» asarlarida uchraydi. Ushbu manbalarda Sirdaryo Sayhun sifatida tilga olinib, jumladan, «Sayhun – yirik daryo, uning manbasi Turkistonadir», - deyiladi. Shu bois, manbasi Turkiston bo'lgan yirik suv manbasining nomi – Sirdaryo (Qipchoqdaryo)

bo'lishi ehtimoli juda ustun.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirov A. O'zbek madaniyatida suv. – Toshkent: Akademnasr, 2020. – B. 6-43.
2. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston, 1978. – B. 112.
3. Aristov N.A. Zametki ob etnicheskem sostave tyurkskix plemen i narodnostey i svedeniya ob ix chislennosti. – Sank-Peterburg, 1897. – S. 347.
4. Aristov N.A. Zametki ob etnicheskem sostave tyurkskix plemen i narodnostey i svedeniya ob ix chislennosti. – Sank-Peterburg, 1897. – S. 348.
5. Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: O'qituvchi, 1982. – B. 79.
6. Yevstigneyev Yu.A. Кырчаки / polovsy / kumanы i ix potomki: k probleme etnicheskoy preyemstvennosti. Moskva: Asterion, 2011.– S. 5.
7. Nazarov N.A. Markaziy Osiyoda millatlararo munosabatlar. – Toshkent: Global Books, 2018. – B. 58-59.
8. Klyashtorniy S.G. Кырчаки v runicheskix pamyatnikax //Turkologika. K vosmidesyatiliyu akademika A.N.Kononova. – Leningrad, 1986. – S. 162
9. Klyashtorniy S.G. Pamyatniki drevnetyurskoy pismennosti i etnokulturnaya istoriya Syentralnoy Azii. – SPb.: Nauka, 2006. – S. 307.
10. Boboyorov G. G'arbiy turk hoqonligining davlat tuzumi. – Toshkent: Yangi nashr, 2018. – B. 263.
11. Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: O'qituvchi, 1982. – B. 79.
12. Yevstigneyev Yu.A. Кырчаки / polovsy / kumanы i ix potomki: k probleme etnicheskoy preyemstvennosti. Moskva: Asterion, 2011.– S. 5.